

FIQHIY MAZHABLARDA OHOD XABARNING HUJJAT SIFATIDAGI O'RNI

THE LEGAL STATUS OF Khabar al- WAHID IN SCHOOLS OF ISLAMIC JURISPRUDENCE

ПРАВОВОЙ СТАТУС ХАБАР АЛЬ-ВАХИД В ИСЛАМСКИХ ПРАВОВЫХ МАЗХАБАХ

KHAKIMOVA Nigora Alisherovna

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

PhD, Associate Professor of the ICESCO

Department of Islamic Studies and Islamic Civilization

11, A. Kadiri Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: nigora_24@yahoo.com

YODGOROVA Soliha Obidjon qizi,

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Master's Student

11, A. Kadiri Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: solihayodgorova@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/2/2

Annotatsiya: Mazkur maqolada ohod xabar tushunchasi va uning fiqhiy mazhablarda hujjat sifatidagi o'rni va uni qabul qilishdagi metodologik mezonlar ilmiy-nazariy jihatdan keng qamrovli tahlil qilingan. Ohod xabar (xabar al-vohid) islom huquqi manbalari tizimida zonniy (ehtimoliy) dalil sifatida baholanishiga qaramay, amaliy-shar'iy hukmlarni chiqarishda muhim o'rin egallashi ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotda hanafiy, molikiy, shofeiyy va hanbaliy mazhablarining ohod xabarni qabul qilish mezonlari va metodologik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Ohod xabarni qabul qilishning beshta ittifoq qilingan sharti (roviyning musulmon, oqil, adolatli, rostgo'y va zabt sohibi bo'lishi) hamda hanafiy va molikiylarning qo'shimcha talablari batafsil yoritilgan. Molikiylar Madina ahli amaliyotiga (amal ahli Madina) zid bo'lgan xabarlarini rad etgan bo'lsalar, hanafiylar xabarning umum al-balvo (har bir musulmonga tegishli masala bo'lib uning hukmini bilishga butun jamiyat muhtoj bo'lishi) doirasida bo'lmasligi, roviyning faqih bo'lishi, rivoyatning qat'iy sobit bo'lgan shar'iy asoslarga zid bo'lmasligi kabi qo'shimcha shartlarni ilgari surganlar. Shofeiyy va hanbaliy mazhablari esa sahih isnodni asosiy shart deb bilgan holda, ohod xabarni nisbatan kengroq doirada qabul qilganlar.

Shuningdek, maqolada ahli ra'y va ahli hadis maktablari o'rtasidagi metodologik farqlar atroflicha yoritilgan. Ohod xabarning qiyos bilan o'zaro munosabati, xususan, hanafiy mazhabida Karxiy va Dabusiy o'rtasidagi roviy faqihligi haqidagi nazariy ixtiloflar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida, mazhablar o'rtasidagi ixtiloflarning hadisni

inkor etishdan emas, balki uni talqin qilish va huquqiy dalil sifatida qo'llashdagi yondashuvlardan kelib chiqqani asoslab berilgan.

Natijada, ohod xabar islom huquqi manbalari tizimida muhim dalil sifatida o'z o'rniga ega ekani va mazhabdagi tafovutlar fiqhiy qarashlarning boyligini namoyon etishi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: ohod xabar, hujjat, mazhab, zonniy, usul al-fiqh, isnod, qiyos, faqih.

Annotation: This article provides a comprehensive theoretical analysis of the concept of khabar al-wahid (solitary report) and its status as a legal proof (hujja) in Islamic legal schools, along with the methodological criteria for its acceptance. Although khabar al-ahad (khabar al-wahid) is classified as a speculative (zanni) source of evidence within the framework of Islamic legal sources, its significant role in the derivation of practical Shari'ah rulings has been substantiated through scholarly analysis. The study comparatively examines the criteria for the acceptance of khabar al-ahad and the methodological approaches adopted by the Hanafi, Maliki, Shafi'i, and Hanbali schools of Islamic jurisprudence. The article elaborates in detail on the five unanimously accepted conditions for the acceptance of khabar al-wahid—namely, that the narrator be Muslim, sane, upright, truthful, and possess accurate retention (dabt)—as well as the additional requirements stipulated by the Hanafi and Maliki schools. While the Maliki jurists rejected reports that contradicted the established practice of the people of Madinah (amal ahl al-Madinah), the Hanafi jurists introduced additional conditions, including that the report should not pertain to matters of “umum al-balwa” (issues of widespread public concern requiring universal legal awareness), that the narrator possess juristic competence (fiqh), and that the narration not contradict firmly established Shari'ah principles. In contrast, the Shafi'i and Hanbali schools adopted a relatively broader acceptance of khabar al-ahad, considering the authenticity of the chain of transmission (sahih isnad) as the principal criterion.

The article also examines the methodological differences between the ahl al-ray and ahl al-hadith schools. It analyzes the relationship between khabar al-wahid and qiyas (analogical reasoning), with particular attention to the theoretical disagreement between al-Karkhi and al-Dabusi within the Hanafi school regarding the requirement that the narrator be a jurist. The study demonstrates that the differences among the jurisprudential schools did not arise from the rejection of hadiths themselves, but rather from differing approaches to their interpretation and application as legal evidence.

As a result, the study concludes that khabar al-wahid occupies a significant position within the system of Islamic legal sources, and that the differences among the jurisprudential schools reflect the richness and diversity of Islamic legal thought.

Keywords: khabar al-wahid, solitary report, legal proof, madhhab, zanni, usul al-fiqh, isnad, qiyas, faqih.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний теоретический анализ понятия хабар аль-

вахид (единичное сообщение) и его статуса в качестве правового доказательства (хужжжа) в различных исламских правовых школах, а также методологических критериев его принятия. Несмотря на то, что в иерархии исламских правовых источников хабар аль-вахид классифицируется как занний (вероятностное) доказательство, в статье научно обосновывается его фундаментальная роль в выведении практических шариатских предписаний (ахкам шар'иййа). В исследовании проведен сравнительный анализ критериев принятия и методологических подходов, применяемых ханафитской, маликитской, шафиитской и ханафитской и ханбалитской правовыми школами. Подробно освещены пять общепризнанных условий принятия хабар аль-вахид (мусульманское вероисповедание, умственная полноценность, справедливость, правдивость и точность памяти передатчика), а также дополнительные требования, выдвигаемые ханафитами и маликитами. Маликиты отвергают сообщения, противоречащие сложившейся практике жителей Медины ('амаль ахль аль-Мадина), в то время как ханафиты выдвигают ряд дополнительных условий: сообщение не должно касаться вопросов всеобщей необходимости (умум аль-бальва), передатчик должен быть правоведом (факих), а само сообщение не должно противоречить установленным шариатским основаниям. Шафи'иты и ханбалиты, напротив, принимают хабар аль-вахид в более широких пределах, считая достоверную цепь передачи (иснад сахих) основным критерием.

В статье также освещены методологические различия между школами ахль ар-ра'й и ахль аль-хадис. Проанализировано соотношение хабар аль-вахид и кийас (аналогическое рассуждение), с особым вниманием к теоретическому расхождению между аль-Кархи и ад-Дабуси в ханафитской школе относительно требования правоведческой компетенции передатчика. В ходе исследования обосновывается, что разногласия между школами проистекают не из отрицания хадисов как таковых, а из различных подходов к их интерпретации и применению в качестве правового источника. В заключении делается вывод, что хабар аль-вахид сохраняет свое значение как важное правовое доказательство в системе исламских правовых источников, а доктринальные расхождения отражают богатство и многообразие исламской правовой мысли.

Ключевые слова: хабар аль-вахид, правовое доказательство, мазхаб, занний, усуль аль-фикх, иснад, кийас, факих.

KIRISH

Ohod xabar tushunchasi islom huquqining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ohod xabar deganda Payg'ambar (s.a.v) dan bir yoki oz sonli roviylar tomonidan rivoyat qilingan, ammo mutavotir yoki mashhur darajasiga yetmagan xabarlar tushuniladi (Kamali, 2003:82). Imom Shofeiy bunday xabarlarni

“xabar al-xossah” deb atagan bo'lsa (Shofeiy, 1961:359), boshqa usul olimlari ularni “xabar al-vohid” atamasi bilan ifodalaganlar. Xabar al-vohid –adolat va zabt sifatlarini o'zida jamlagan, bir yoki ikki yoxud tavotir darajasiga yetmagan sondagi sahobaning, so'ngra tobein va taba tobeinning Rasululloh (s.a.v) dan rivoyat qilgan, matnida shoz va illat bo'lmagan, g'olibi zon bilan sobit bo'lgan xabardir. G'azzoliy esa besh-olti roviy tomonidan rivoyat qilingan xabarni ham, agar tavotir darajasiga yetmasa, xabar al-vohid deb hisoblagan va uni fiqhiy masalalarda yetarli dalil deb bilgan (G'azzoliy, 1994:145).

Ohod xabarning hujjatlik qiymati masalasi fiqhiy mazhablar o'rtasidagi eng qadimiy ilmiy bahslardan biridir. Ahli sunna va al-jamoa mazhablari ohod xabarni shar'iy amaliy masalalarda hujjat sifatida qabul qilish borasida umumiy ittifoqqa ega bo'lsalar-da (Shavkoniy, 2000:48-49), uni qabul qilish shartlari va boshqa dalillar bilan o'zaro munosabati masalasida muhim metodologik tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar, o'z navbatida, mazhablarning fiqhiy qarashlardagi asosiy yo'nalishlarni ya'ni ahli ra'y va ahli hadis maktablarining metodologik ustuvorliklarini aks ettiradi (Koşum, 2008:87). Faqihlar va muhaddislar prinsipial ohod xabarning hujjat ekani, ya'ni shar'iy manba qiymatiga ega ekanini tan oladilar.

Hanafiy usulchilari “mujavviza dalillar” nazariyasini ishlab chiqib, qat'iy ilmni ifoda qilmasa ham amaliy hukmlar chiqarish uchun yetarli ishonch hosil qiluvchi dalillarni hujjat sifatida qabul qilganlar (Saraxsiy, 2005:293). Bu nazariya doirasida ohod xabar mujavviza dalillarning eng muhimlaridan bir bo'lib, unda rostlik ehtimoli (g'olibi zon) mavjud deb hisoblanadi. Ohod xabarning zonniy dalil ekani, uning o'z-o'zicha qat'iy bilim ifoda etmasligini anglatadi (Shavkoniy, 2000:198). Bunga Qur'oni karimning “Najm” surasidagi “...gumon esa, aslo haqiqat o'rniga o'tmas” oyati dalil qilib keltiriladi (Mansur, 2004:528). Jassosni ta'kidlashicha, xabar al-vohid ham, qiyos ham qat'iy ilm jihatidan emas, balki g'olibi zon jihatidan hukm chiqaradi (Jassos, 1994:166). Ohodni dalil sifatida qabul qilgan ulamolar Payg'ambar (s.a.v) islomni qabul qilgan qavmlarga ta'lim berish uchun bittadan sahoba yuborganlari hamda sahobalarning ohod xabar asosida amal qilganlari uning shar'iy-amaliy masalalarda hujjat ekanini ko'rsatadi deb hisoblaydilar.

Ulamolarning aksariyatiga ko'ra, ohod xabar e'tiqodning asliy masalalarida asos bo'la olmaydi. Chunki e'tiqodning asliy masalalari qat'iy dalilga asoslanishi lozim. Shunga qaramay, qabr azobi, shafolat va shu kabi far'iy masalalarga oid ohod xabarlar qabul qilishi va ularga ishonilishi lozim. Ularni inkor etgan shaxs gunohkor sanaladi, ammo kofir deb baholanmaydi, chunki u qat'iy dalil bilan isbotlanmagan xabarni inkor etgan bo'ladi.

ASOSIY QISM

Ahli sunna va al-jamoa mazhablari ohod xabarni hujjat sifatida qabul qilish uchun roviy va rivoyat bilan bog'liq bir qator shartlarni belgilaganlar. Mazkur shartlarning beshtasi barcha mazhab olimlari tomonidan ittifoq qilingan.

Birinchidan, roviy musulmon bo'lishi shart. Musulmon bo'lmagan shaxsning rivoyati bilan amal qilinmaydi (Juvayniy, 1997:221). Roviyaning hadisni qabul qilgan vaqtda emas, balki hadisni rivoyat qilayotgan paytda musulmon bo'lishi talab qilinadi. Chunki sahobalar islomga kirishlaridan oldin Payg'ambarning (s.a.v) amallarini kuzatib, keyinchalik musulmon bo'lganlaridan so'ng ular haqida hadis rivoyat qilganlari ma'lum.

Ikkinchidan, roviy balog'atga yetgan va oqil bo'lishi lozim. Balog'at yoshiga yetmagan bolalar yoki aqliy qobiliyati to'liq rivojlanmagan shaxslarning rivoyatlari hujjat qiymatiga ega emas. Chunki bunday shaxslar o'z so'zlaridan mas'ul bo'lmagani uchun rivoyatda yolg'on ehtimoli bo'lishi mumkin (Taftazoniy, 1957:11). Ayollar, ko'zi ojizlar va qullar hadis rivoyat qilish nuqtayi nazaridan layoqatli hisoblanadi, ammo guvohlik berish masalasida ular da ayrim cheklolar mavjud.

Uchinchidan, roviy adolatli bo'lishi talab qilinadi. (Juvayniy, 1997:223). Roviyaning adolatli bo'lishi deganda uning gunohlardan saqlanishi, taqvodor va parxezkor bo'lishi tushuniladi. Shuningdek, u katta gunoh sodir etmagan bo'lishi, kichik gunohlarni muntazam takrorlamasligi, hamda ochiq-oydin odobsizliklar bilan tanilmagan bo'lishi lozim. Ushbu sifatlarga ega bo'lmagan roviyaning rivoyati qabul qilinmaydi.

To'rtinchidan, roviy rostgo'y bo'lishi kerak (Juvayniy, 1997:223). Yolg'on gapiradigan va ishonchsiz shaxslarning rivoyatlari qabul qilinmaydi.

Beshinchidan, roviy zabt (mustahkam xotira) ga ega bo'lishi kerak. Roviyaning rivoyat qilayotgan hadisni uni rivoyat qilguniga qadar xotirasida to'g'ri saqlay olishi hamda eshitgan so'zlarning ma'nosini to'g'ri anglay olishi lozim. Agar u tez-tez xatolarga yo'l qo'yishi yoki rivoyatlarida nomuvofiqliklar kuzatilishi bilan tanilgan bo'lsa, uning rivoyati qabul qilinmaydi. Lekin roviyaning xotirasi mustahkam ekaniga shubha tug'ilganda, uning rivoyati oldingi ulamolarning amaliyoti bilan tasdiqlansa qabul qilinishi mumkin. Ammo bunday tasdiq mavjud bo'lmagan taqdirda, mutlaqo noma'lum bo'lgan va xotira qobiliyati aniqlanmagan roviylarning rivoyatlari qabul qilinmaydi (Shavkoniy, 2000:52).

Ohod xabarni hujjat sifatida qabul qilish uchun usul olimlari orasida qo'shimcha shartlar ham mavjud.

Bu shartlar har bir mazhabning o'z metodologiyasi doirasida shakllangan mezonlardan iborat.

1. Xabar Madina ahli amaliyotiga (amal ahli Madina) zid bo'lmashligi. Molikiy mazhabida ohod xabarni Madina ahli amaliyotiga zid bo'lmashligi alohida shart sifatida belgilanadi. Agar ohod xabar Madina ahli amaliyotiga zid kelsa, u hujjat sifatida qabul qilinmaydi (Jassos, 1994:128). Molikiylarga ko'ra, islomning huquqiy va amaliy tizmi ya'ni ibodat, muomalat, halol va haromga oid hukmlar aynan Madinada shakllangan va amaliyotga joriy etilgan. Shuning uchun Madina ahlining ittifoq qilgan amaliyoti Payg'ambar (s.a.v) sunnatining yakka shaxslar rivoyatiga qaraganda ishonchliroq ifodasi deb sanaladi.

Imom Molik ta'kidlashicha, madinaliklarning amaliyoti aslida minglab kishilarning isnodi Payg'ambarga (s.a.v) borib taqaluvchi rivoyatlar bo'lib, ular mashhur, hatto mutavotir hukm darajasida baholanadi va ohod xabardan ustun hisoblanadi (el-Beyânûnî, 2013:78). Shu bois, agar ohod hadis Madina ahlining amaliyotiga zid kelsa, molikiylar nazarida, amaliyot hadisdan ustun qo'yiladi. Bunga ko'ra, molikiylar savdo bitimida "majlis ixtiyori" (xiyar al-majlis) haqidagi "Savdo taraflari bitim majlisidan ajralmaguncha, o'z qarorlarini o'zgartirish huquqiga egadirlar" hadisiga amal qilmaganlar. Chunki ushbu hadis Madina ahlining amaliyotiga zid keladi (Shofei, 1961:140). Bu masalada madinaliklarning amaliyotiga ko'ra, shartnoma tomonlar o'rtasida haqiqiy taklif va qabul orqali kelishuv bildirilgan zahoti tuzilgan hisoblanadi. Shu ondan boshlab "bitim majlisi" davom etishi yoki etmasligidan qat'i nazar shartnoma majburiy kuchga ega bo'ladi (Kamali, 2003:78).

2. Xabar qat'iy sobit bo'lgan shar'iy asoslarga zid bo'lmashligi (Saraxsiy, 2005:339). Hanafiy va molikiy mazhablariga ko'ra, ohod xabar hujjat sifatida qabul qilinishi uchun u islom huquqining umumiy tamoyillariga zid bo'lmashligi lozim. Agar ohod xabar umumiy qoidalarga zid kelsa, hanafiy mazhabida masala roviyaning maqomiga qarab baholanadi. Molikiylar roviy faqih bo'lishi yoki bo'lmashligidan qat'i nazar umumiy qoidalarni ustun qo'yadilar. Ularning nazarida, ushbu tamoyillar rivoyatga nisbatan kengroq qamrovga ega bo'lib, hukmning maqsadini aniqroq ifodalaydi. Ohod xabar muayyan bir hukmni chiqarish uchun vorid bo'lsa umumiy qoidalar esa hukmning maqsadini yoritadi va shu sababli umumiy qoidalar ohod xabardan ustuvor hisoblanadi (Qarofiy, 1993:283).

3. Roviyaning faqih bo'lishi. (Saraxsiy, 2005:341). Agar roviy faqih bo'lib, ijthod qilish salohiyatiga ega bo'lsa, hanafiy nazarida uning rivoyati qiyosdan ustun hisoblanadi. Dabusiylar bu masalani tizimlashtirib, faqih roviyaning rivoyati sahoba va keyingi mujtahidlarning

ijtihadidan ustun turishini va amaliy hukm shu asosda chiqarilishini ta'kidlagan (Dabusi, 2001:180). Bu holat shunchalik mashhur bo'lganidan, ohod xabar "qiyosdan voz kechishga sabab bo'lgan xabar" sifatida tavsiflangan. Molikiy mazhabining faqihi Qarofiy Imom Molik va Abu Hanifa faqih bo'lmagan roviyning xabarini tark etganini qayd etadi (Qarofiy, 1993:285). Biroq hanafiy mazhabining ilk shakllanish davrida mazkur mezon aniq usul qoidasi sifatida mavjud bo'lmagan. U keyingi davrda nazariy asosga ega bo'lib, mustaqil metodologik qoida sifatida shakllanishida Dabusiyning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga mazhab ichida roviyni faqih bo'lishini shart deb hisoblamagan usulchilar ham bo'lgan. Jumladan, Karxiy roviy faqih bo'lmasa ham adolat va zabt sifatlariga ega bo'lsa, uning rivoyati sahih sanaladi va sahih hadis qiyosdan ustun qo'yiladi deb ta'kidlagan (Nujaym, 2001:82).

Hanafiy mazhabida Karxiy va unga o'xshash fikrni bildirgan boshqa olimlar mavjud bo'lishiga qaramay mazhabning asosiy qarashiga ko'ra, roviy faqih bo'lmasa umumiy huquqiy qoidalar ohod xabardan ustun qo'yiladi. Ushbu yondashuv ko'plab shar'iy amaliy masalalarda qo'llanilgan. Masalan, musarrot va olovga tegish natijasida tahorat buzilishi haqidagi hadislar umumiy fiqhiy qoidalarga zidligi sababli rad etilgan (Çetintürk, 2021:67). Musarrot hadisida shunday deyiladi: "Tuya yoki echkning sutini ko'p ko'rsatish maqsadida ushlab turmang. Kim musarratni sotib olsa, uni sog'ib ko'rgach, uch kun ichida uni saqlab qolish yoki bir miqdor (ya'ni bir so) xurmo bilan birga qaytarish huquqiga ega." Hanafiylar ushbu hadisni qiyosga zid, zarar va tovon o'rtasidagi tenglik qoidasi bilan muvofiq emas, deb baholaydilar. Abu Hanifa agar xaridor hayvonni qaytarishni istasa, uni qat'iy belgilangan miqdordagi xurmo bilan emas, balki sotib olish vaqtida yelinda mavjud bo'lgan sutning qiymati bilan birga qaytarishi lozim degan fikrni ilgari suradi. Chunki, bir so xurmoning qiymati xaridor iste'mol qilgan sut miqdoriga teng bo'lmaslik ehtimoli bor.

Biroq ulamolarning aksariyati jumladan, Imom Molik, Imom Shofeiy, Ahmad ibn Hanbal hamda Abu Hanifaning shogirdlari Abu Yusuf va Zufar ushbu hadisni qabul qilib, uni qiyosdan ustun qo'yganlar. Ularning fikricha, tovon bir so xurmo yoki uning puldagi qiymati bilan berilishi mumkin. Hadisda xurmoning zikr etilishi o'sha davrda u asosiy oziq-ovqatni o'lchovchi mahsuloti bo'lgani bilan izohlanadi.

4. Roviylar rivoyatiga zid amal qilmagan bo'lishi (Dabusi, 2001:202-203). Roviylar rivoyatiga xilof ish tutsa, bu holat uning xabari mansux ekaniga dalolat qiladi. Agar roviy mansux bo'lgan hukmga amal qilsa Payg'ambarga (s.a.v) muxolif hisoblanadi. Sahobalar esa bunday muxolifat qilmaydigan adolat va fazilat

egalari sifatida qabul qilinadi va ular faqat xabarning mansux ekanini bilgandagina unga zid harakat qilishi mumkin. Shu bois, roviylar rivoyatiga zid amal qilgan bo'lsa, uning amali e'tiborga olinadi va rivoyat qilingan xabar mansux deb hisoblanib, tark etiladi.

Aynan shu shartga ko'ra Abu Hanifa Abu Hurayra tomonidan rivoyat qilingan "Agar it idishni yalasa, uni yetti marta yuvinglar, ulardan biri toza tuproq bilan bo'lishi kerak" degan hadisga tayanmaydi. Abu Hanifa bu masalani Abu Hurayra ushbu hadisga o'zi amal qilmagan deya izohlaydi. Odatda yuvish uch marta bo'lishini ta'kidlab, mazkur rivoyat Abu Hurayraga nisbat berilishi ham zaif deb hisoblaydi. Boshqa tomondan, ulamolarning aksariyatiga ko'ra roviyning amali bilan uning rivoyati o'rtasidagi tafovutga unutish yoki boshqa noma'lum omillar sabab bo'lishi mumkin, bunday tafovutlar o'z-o'zicha rivoyatni ishonchsiz deb topish uchun qat'iy dalil bo'la olmaydi.

5. Hanafiy mazhabiga ko'ra, ohod hadisning mavzusi ko'plab odamlar bilishi zarur bo'lgan masalalardan bo'lmasligi kerak (Dabusi, 2001:196). Masalan, agar Payg'ambarning (s.a.v) shunday bir so'z yoki amali haqida yolg'iz rivoyat keltirilsa, uni aslida yuzlab yoki minglab kishilar bilishi kerak bo'lsayu ammo uni faqat bir yoki ikki kishi rivoyat qilgan bo'lsa, bunday hadis ishonchli deb baholanmaydi. Chunki agar hadis sahih bo'lganida edi, u barcha musulmonlar orasida keng tarqalgan amaliyotga aylangan bo'lardi deb izohlanadi. Dabusi, Saraxsiy, Pazdaviylar amal nuqtai nazaridan barchaga birdek talluqli masalada vorid bo'lgan ohod xabarni qabul qilish mumkin deb hisoblaganlar. G'azzoliy esa bu borada Karxiy va ba'zi ra'y ahli fikriga qarshi ravishda bir voqeani ko'rgan yoki guvoh bo'lgan har bir kishi uni rivoyat qilavermasligi ham mumkin deb hisoblagan. Bunga ko'p sonli odamlar Payg'ambar (s.a.v) ning haj amalini bajarishini ko'rgan bo'lsalar ham, ularning hammasi bu haqida rivoyat qilmaganini misol qilib ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Shofeiy va hanbaliy mazhablari ohod xabarni hujjat sifatida qabul qilish masalasida hanafiy va molikiylar ilgari surgan maxsus shartlarning hech birini majburiy deb hisoblamaganlar. Chunki shofeiyylar ohod xabar bilan amal qilish uchun uning isnodi sahih va muttasil bo'lishi kifoya ekanini ta'kidlasa, hanbaliylar isnodning faqat sahih bo'lishini talab qiladilar. Hanbaliylar ayrim hollarda mursal hadis bilan ham amal qilish mumkin deb ta'kidlaydilar (G'azzoliy, 1994:459-465).

Ushbu ikki mazhabga ko'ra, ohod xabar bilan umumiy qoidalar yoki qiyos bir-biriga zid kelib qolsa, ohod xabar ustun qo'yiladi. Ular bu qarashni sahobalar

amaliyoti va Muoz ibn Jabal bilan bog'liq quyidagi rivoyat orqali asoslaydilar:

Muoz ibn Jabalning Hims ahlidan bo'lgan bir guruh sohiblaridan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v) Muozni Yamanga yuborishni iroda qilganlarida: "Biror masalaga duch kelsang, qanday qilib hukm chiqarasan?" dedilar. Allohning Kitobi bilan dedi. Allohning Kitobidan topmasang-chi?" dedilar. "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari bilan", dedi. "Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatidan xam, Allohning Kitobidan ham topmasang-chi?" dedilar. "Fikrim bilan ijti hod qilaman, bo'sh kelmayman", dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uning ko'ksiga urdilar va: "Alloh Rasulining vakilini Allohning Rasulini rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Allohga hamd bo'lsin!" dedilar". Abu Dovud rivoyat qilgan (Yusuf, 2019:81).

Ushbu rivoyatda hukm chiqarish tartibi Qur'on, so'ng sunnat, undan keyin esa ijti hod ekani bayon qilingan. Bu tartibda sunnatning mutavotir yoki ohod bo'lishidan qat'i nazar ijti hoddan oldin zikr qilinishi ohod xabarining qiyos va boshqa ijti hod dalillaridan ustun qo'yilishini tasdiqlaydi.

Shofei y va hanbaliy usulchilari nazarida ohod xabar mohiyatan zonniy emas, balki asl manba jihatidan qat'iy dalil hisoblanadi. Bu qarash, ohod xabar Payg'ambar (s.a.v) ning so'ziga tayanadi va u zotning so'zida xato bo'lishi mumkin emas deb izohlanadi. Ohod xabarining zonniy ekani uni rivoyat qilish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy xatolar bilan bog'liqdir. Qiyos esa mujtahidning aqliy faoliyati va ijti hodi natijasida shakllangan bo'lib, aslan zonniy hisoblanadi. Shu sababli manba jihatidan Payg'ambar (s.a.v) so'ziga tayangan ohod xabar mujtahid ijti hodiga asoslangan qiyosdan kuchliroq dalil deb baholanadi va qiyosdan ustun qo'yiladi.

NATIJA

Mazhablarning usulda tutgan yondashuvlarini ahli ra'y va ahli hadis maktablari bilan bog'lash mumkin, biroq qaysi mazhabning aynan qaysi maktabga mansubligi masalasida olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar, jumladan, Abul Fath Shahrisoniy molikiy va shofei y mazhablarini ahli hadis doirasiga kiritgan bo'lsa, Xattobiy ularni ahli ra'yga mansub deb hisoblaydi. Boshqa bir guruh olimlar esa ushbu ikki mazhab metodologiyasida har ikkala yondashuv unsurlari mujassam ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Shofei yning fiqhiy qarashlarida hadis dalillarini qat'iy himoya qilgani uning ahli hadis metodologiyasiga yaqin ekanini ko'rsatadi (Çetintürk, 2021:72).

Umuman olganda, shofei y va hanbaliy mazhablarida hadis rivoyatlariga tayanish ustuvor ahamiyat kasb etsa, hanafiy va molikiy mazhablarida ijti hod, qiyos va umumiy fiqhiy tamoyillarga kengroq o'rin beriladi. Biroq bu holat ahli ra'y maktabi sahih hadislarni tark etib, faqat ijti hodga tayanadi degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, ular ohod xabarlarini qabul qilishda yanada qat'iy mezonlarni qo'llash bilan ajralib turadi.

To'rt mazhab imomining barchasi "Agar hadis sahih bo'lsa, u mening mazhabimdir" tamoyilini e'tirof etgan. Shu sababli hadis barcha mazhablar nazarida shar'iy hukm chiqarishning asosiy va ajralmas manba hisoblanadi (Koşum, 2008:92). Hadis ahli bilan ra'y ahli o'rtasidagi farq, hadisdan hukm chiqarish metodida namoyon bo'ladi. Ya'ni ahli hadis hadis matning zohiriga amal qilishni ustuvor deb bilsa, ahli ra'y hadising illati, sababi va umumiy maqsadini ham chuquqr tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, agar ohod xabar Qur'on yoki mutavotir sunnatdagi nasslar bilan zohiran qarama-qarshi ko'rinsa, ahli ra'y avvalo ular o'rtasida muvofiqlik topishga intiladi. Bunday uyg'unlikka erishish imkoni bo'lmagan holatlarda esa Qur'on va qat'iy sunnat dalillari ohod xabardan ustun qo'yiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ohod xabar qat'iy ilmni emas, balki zonniy bilimni ifoda etishiga qaramay, fiqhiy mazhablar uni shar'iy-amaliy masalalarda hujjat sifatida qabul qilish zarurligi borasida umumiy ittifoqqa ega. Biroq ohod xabarni qabul qilish shartlari hamda uning boshqa shar'iy dalillar bilan munosabati masalasida mazhablar o'rtasida muayyan metodologik tafovutlar mavjud. Xususan, hanafiy va molikiy mazhablari ohod xabarni baholashda islom huquqining umumiy qoidalari va usul prinsiplariga tayanib, uni qo'llashda ehtiyotkorlik bilan yondashganlar. Aksincha, shofei y va hanbaliy mazhablari isnodi sahih bo'lgan ohod xabarni shar'iy hukm chiqarishda kengroq qo'llashga intilganlar. Shunday qilib, fiqhiy mazhablar o'rtasida yuzaga kelgan tafovutlar hadisni inkor etish bilan emas, balki uni tushunish, talqin qilish hamda huquqiy dalil sifatida qo'llashdagi metodologik yondashuvlarning farqlanishi bilan izohlanadi. Mazkur metodologik tafovutlar esa fiqhning amaliy masalalarida turli hukm va qarashlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. ابن نجيم (2001). فتح الغفار بشرح المنار. بيروت: دار الكتب العلمية.
2. أبو المعالي الجويني (1997). البرهان في الأصول الفقه. بيروت: دار الكتب العلمية.
3. أبو بكر الجصاص (1994). الفصول في الأصول. بيروت: دار الكتب العلمية.

4. أبو بكر السرخسي (2005). أصول السرخسي. بيروت: دار الكتب العلمية.
5. أبو حامد الغزالي (1994). المستصفى من علم الأصول. بيروت: دار الأركان.
6. أبو زيد الديبوسي (2001). الأدلة في أصول الفقه. بيروت: دار الكتب العلمية.
7. سعد الدين التفتازاني (1957). شرح التلويح على التوضيح. القاهرة: مكتبة ومطبعة محمد علي صبيح.
8. شهاب الدين أبو العباس القرافي (2004). تنقيح الفصول في علم الأصول. بيروت: دار الفكر.
9. محمد ابن علي الشوكاني (2000). إرشاد الفحول. المجلد 1. الرياض: دار الفضيلة.
10. Çetintürk, T. (2021). Mezheplerin haber-i vâhid ile amel etmek için benimsedikleri şartlar ve bu şartların hükümlere etkisi-kitâbu'l-cenâiz özelinde. Van ilahiyat dergisi.
11. El-Beyânûnî, Ebu'l-Feth. (2013). Mezhep meselesi ve fikhî ihtilaflar. Tercüme ve notlar: Ebubekir Sifil. İstanbul: Ravza yayınları.
12. Kamali, M. H. (2003). Principles of Islamic Jurisprudence. Cambridge: The Islamic text society.
13. Koşum, A. (2008). Akıl (re'y)-Nakil (eser/hadis) ayrışmanın fikhî boyutları. İslam hukuk araştırmaları dergisi.
14. Mansur, A. (2004). Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent: TIU.
15. Shafii, I. (1961). Risola. (M. Xadduri, Trans.) Cambridge: The Islamic text society.
16. Юсуф, М. С (2019). Усулул фикх. Тошкент: Ҳилол-Нашр.
11. Qarofiy, A. A. (1993). Tanqih al-fusul fi ilmi al-usul. (T. Said, Ed.) Qohira: Dor al-fikr. (in Arabic).
12. Saraxsiy, A. S. (2005). Usul as-Saraxsiy. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. (in Arabic).
13. Shavkoniy, M. I. (2000). Irshod al-fahul (Vol. I). (A. H. Ushariy, Ed.) Ar-Riyod: Dor al-fozila. (in Arabic).
14. Shofeiyy, I. (1961). Risola. (M. Xadduri, Trans.) Cambridge: The Islamic text society. (in English).
15. Taftazoniy, S. (nashr yili ko'rsatilmagan). Sharh at-talvih ala at-tadvih. Qohira: Maktabatu Muhammad Ali Sobih. (in Arabic).
16. Yusuf, M. S (2019). Usulul fiqh. Toshkent: Hilol-Nashr. (in Uzbek).

REFERENCES

1. Al-Bayanuni, E. F. (2013). The Issue of Madhhabs and Jurisprudential Differences. Ravza Publications. (in Turkish).
2. Chetinturk, T. (2021). The conditions adopted by madhhabs for acting upon khabar al-wahid and their impact on rulings: The case of Kitab al-Jana'iz. Van Journal of Theology. (in Turkish).
3. Dabusiyy, A. Z. (2001). Taqvim al-adilla fi usul al-fiqh. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. (in Arabic).
4. Ghazzali, A. H. (1994). Al-Mustasfa. (I. M. Ramazon, Ed.) Bayrut: Dar al-arkom. (in Arabic).
5. Jassos, A. B. (1994). Al-Fusul fi al-usul. (M. Tamir, Ed.) Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya. (in Arabic).
6. Juvayniyy, A. M. (nashr yili ko'rsatilmagan). Al-burhon fi usul al-fiqh (Vol. I). (A. Dib, Ed.) Qohira: Dor ul-vafo. (in Arabic).
7. Kamali, M. H. (2003). Principles of Islamic Jurisprudence. Cambridge: The Islamic text society.
8. Koshum, A. (2008). The Jurisprudential Aspects of the Distinction between Reason (Ra'y) and Transmission (Hadith) Journal of Islamic Law Studies. (in Turkish).
9. Mansur, A. (2004). The Holy Qur'an: Translation and Commentary. Tashkent: Tashkent Islamic University. (in Uzbek).
10. Nujaym, I. (2001). Fath al-g'affor bi sharhi al-manor. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya. (in Arabic).